

Published Date:- 17-10-2023

JAHON ADABIYOTI FANINI O‘QITISH BO‘YICHA BA‘ZI MULOHAZALAR

Bobonazarova Gulnoza Tolibjonovna,

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“Jahon tillari va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: jg21@mail.ru

Annotatsiya. Adabiyot qudratli kuch sifatida insonlarni ma’naviy tarbiyalash bilan bog‘liq vazifani bajarib kelgan. Ayniqsa yosh avlod ta’limi va tarbiyasida uning o‘rni beqiyosdir. Mazkur maqolada jahon adabiyoti fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari hamda badiiy kompetensiyalar borasida fikr yuritiladi.

Аннотация. Литература является мощной силой, которая выполняет задачу связанную с духовным воспитанием людей. Особенно его место несравненно в образовании и воспитании молодого поколения. В данной статье рассматриваются цели и задачи обучения мировой литературе как предмет и художественным компетенциям.

Abstract. Literature as a powerful force, fulfills the task which is connected with spiritual education of people. Its place especially in the education and upbringing of the younger generation is important. This article discusses the goals and objectives of teaching world literature and artistic competencies.

Kalit so‘zlar: jahon adabiyoti, maqsad, vazifa, kompetensiya, texnologiya, badiiy asar, tahlil.

Ключевые слова: мировая литература, цель, задача, компетентность, технология, художественное произведение, анализ.

Key words: world literature, goal, task, competence, technology, fiction literature, analysis.

Kirish. Jahon adabiyoti fani adabiy-madaniy muhit haqidagi qarashlar va

Published Date:- 17-10-2023

ularga munosabat, tarixiy–adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligi kabi masalalarni qamrab oladi. Adabiy-estetik qadriyatlarining milliy va umumbashariy jihatlarini, badiiy adabiyotning hamda adabiyot nazariyasining millat hamda jamiyat ravnaqidagi o‘rnini bilish, badiiy asarni chuqur tushunish, tahlil, tadqiq etish malakasini hosil qilish, jamoatchilikka jahon adabiyotidagi mazmun va shakl, mavzu va g‘oyaning mohiyati bilan tanishtirishga ko‘maklashish, jamiyatning ma'naviy manzarasini adabiy-nazariy tafakkur orqali aks ettirishga, bozor iqtisodiyoti jarayonida badiiy adabiyotning mablag‘ va qiymat keltiruvchi hodisaga aylanib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun amaliy ko‘rsatmalar beradi.

Asosiy qism. Jahon adabiyoti fanining bosh maqsadi - jahon adabiyotining yetuk namunalari bilan tanishgan, yuksak estetik didga ega, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o‘zganing tuyg‘ularini angelaydigan, o‘z xatti-harakatlariga javob beradigan sog‘lom e‘tiqodli komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iboratdir.

Jahon adabiyoti fanini o‘qitishning vazifalari: talabalarda badiiy adabiyotga mehr uyg‘otish, ularni ko‘rkam asarlarini tushunadigan va tahlil qiladigan, badiiy matn to‘g‘risidagi fikrlarni og‘zaki yoki yozma tarzda to‘g‘ri hamda erkin ifodalay oladigan qilib tarbiyalashdan iborat.

Bu vazifalarni bajarish uchun talabalarda quyidagi sifatlarni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir: jahon adabiyotining yetuk namunalarni o‘qib o‘rganish; badiiy adabiyotning paydo bo‘lishi, ijtimoiy-madaniy fenomen sifatidagi tabiati haqida tushunchaga ega bo‘lish; adabiyotning rivojlanish qonuniyatlari, uning ijtimoiy hayot, ijtimoiy-siyosiy tuzum bilan bog‘liq jihatlari, adabiy davrlar, ularning almashinish qonuniyatlarini bilish; adabiy tur va janrlar, milliy adabiyotning tasvir vositalari haqidagi bilimlarini o‘zlashtirish; badiiy matnni estetik butunlik, joziba manbai sifatida idrok etish ko‘nikmasini shakllantirish, badiiy zavq sabablarini topish malakasini egallash; badiiy asarni o‘qish mobaynida unga hissiy yondoshish, sezimlar, tuyg‘ular nozikligini hamda boyligiga erishish;

Published Date:- 17-10-2023

badiiy asar muallifining tuyg‘ularini, uning qahramonlari sezimlarini his etish; har qanday janr va yo‘nalishdagi badiiy matnni qabul qila biladigan darajadagi badiiy didni shakllantirish; adabiy til boyliklaridan ravon va savodli foydalanish ko‘nikmalarini egallash kabilardan iborat.

Yuqoridagi sifatlarni rivojlantirmas ekanmiz, biz o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadga erisha olmaymiz. Buning uchun avvalo, talabalarni badiiy asar ustida ishlashga o‘rgatmog‘imiz lozim. Talabalarda badiiy asar ustida ishlash jarayonida o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali badiiy kompetensiyalar rivojlantirib boriladi.

Kompetensiya va uning tasnifiga oid tadqiqotlarda mazkur tushunchadan ta'limning yakuniy natijalarini ko‘rsatish hamda shaxsning turli xususiyatlarini tavsiflashda foydalanilgan. Ta'limda kompetensiyalarning asosiy funksiyasi yosh avlodni hayotga tayyorlashda ijtimoiy talabning namoyon etishi; bilim, ko‘nikma, malaka va faoliyat usullarini kompleks holda maqsadli qo‘llash uchun atrof-muhitdagi real bo‘lgan ob'ektlarni ko‘rsatishi, turli o‘quv vositalari va ta'lim sohalari mazmunining tarkibiy qismi bo‘lishi bilan bir qatorda aniq masalalarni yechishda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishdan iborat.

Professor N.A.Muslimov kompetentlilik tushunchasi o‘zida “individning umuman jamiyatda va xususan kasbiy sohasida faoliyat olib borishi uchun zarur bo‘lgan, atrofidagi ob'ektlar va sub'ektlar bilan o‘zaro hamkorligi bo‘yicha ma'lum bir malakalari va kasbiy tajribalari shakllanganligining muayyan darajasi” ekanligini qayd etgan. Psixolog olim Y.Asadov kompetentlilik to‘g‘risida, “Shaxs barcha bilim, ko‘nikma va tajribalarining ijtimoiy-professional mavqei va o‘ziga tegishli bo‘lgan barcha vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodir ekanligi hamda haqiqiy moslik darajasi” tushunilishini ta'kidlagan. Metodist S.Kambarovanning fikricha, kompetensiya “shaxs tomonidan mukammal o‘zlashtirgan predmet sanaladi va u tanlagan sohada faoliyat yuritish uchun tayyorgarlik mezoni vazifasini bajarsa, kompetentlilik undan farqli ravishda shaxsning yo‘naltirilgan tasnifi, bitiruvchining ma'lum sohada faoliyat yuritishi uchun shakllantirilgan ko‘nikmadir”. M.Kenjaeva

Published Date:- 17-10-2023

o‘zining tadqiqotida “Kompetensiya shaxsning faolligi va mustaqilligi asosida kutilmagan muammoli vaziyatlar yechimini topish, masalani hal qilishning maqbul yo‘llarini belgilash, murakkab topshiriqlarni hayotiy tajribalariga tayangan holda bajarish, shuningdek, o‘z ustida tinimsiz ishlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish layoqatidir”, deb ta’riflagan.

Bizningcha, kompetensiya har bir fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarning chuqur bilim olishlari hamda o‘z bilimlarini kundalik faoliyatida qo‘llay olishlariga ko‘ra belgilanadi. Badiiy kompetensiyalarni rivojlantirishda, avvalambor, uning jihatlariga va xususiyatlariga e’tibor berish muhim. Adabiyot fanida rivojlantiriladigan kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

Badiiy asarni o‘qish, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi: Tavsiya etilgan badiiy ijod namunalarini ifodali o‘qish, ularning mazmun-mohiyatini tushunish, anglash va idrok etish. She’riy matn yoki uning parchasini ifodali yod aytish, badiiy asar syujetini qayta hikoyalash, o‘zgalarga tushuntirib berish, ularda tasvirlangan voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildirish.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi: tavsiya etilgan xalq og‘zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyoti namunalari (nasriy, she’riy, dramatik asar)da tasvirlangan voqea-hodisalar, ularning shakliy tuzilishi, mavzu doirasi, badiiy xususiyatlari, ularga xos ta’sirchanlik, teranlik, oddiylik, obrazlar tizimini tahlil qilish; badiiy asarlar yoshlarni ezgu insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, shaxs sifatida shakllantirish vositasi ekanligi yuzasidan tegishli xulosalar chiqarish, ibrat olish, ulardan kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal etishda foydalanish.

Adabiy bilimlarni amaliyotda qo‘llash kompetensiyasi: o‘rganilgan xalq og‘zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy adabiyot, jahon adabiyoti namunalaridan tegishli xulosalar chiqarish, ibrat olish. Asar va uning qahramonlariga yozma va og‘zaki tavsif berish, annotasiya va taqrizlar, referat va insholar, ijodiy matnlar yoza olish, og‘zaki va yozma nutqni boyitish, rivojlantirish. Shaxs sifatida adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda to‘g‘ri va tushunarli so‘zlash, ravon nutqqa ega

Published Date:- 17-10-2023

bo‘lish. O‘z fikrini boshqalarga yetkaza olish. Xalq maqollari, matallari, aforizm va boshqalardan kundalik og‘zaki so‘zlashuv va yozma nutqda o‘rinli foydalanish.

Badiiy kompetensiyani rivojlantirishda talabalarning nutqiga e'tibor qaratiladi. Kishining nutqiga qarab, uning odobi, ilmga baho berish lozim. Chunki ilmni yoqimli iforga o‘xshatishadi. Uni har qancha yashirishga urinsa ham hidi anqib bildirib qo‘yadi. Bilimni esa til fosh etadi. Bu borada badiiy matn tushunchasi, uni tahlil qilish tamoyillari ayriacha ahamiyat kasb etadi. Badiiy matni adabiyotshunoslar ham, tilshunoslar ham o‘rganishadi. Matnning lingvistik tahlili esa tobora ko‘proq e'tibor qozonayotganligi bejiz emas.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asar matnini o‘rganish bilan adabiyotshunoslar ham, tilshunoslar ham juda qadim zamonlardan buyon shug‘ullanib kelgan. Shuning uchun ham bu masala fanda an'anaviy mavzular qatorida turadi, biroq haligacha mana shu qadimiy muammoning qorong‘i nuqtalari, bahstlab o‘rinlari oz emas. Garchi oliy o‘quv yurtlaridagi bir qator fanlar: jahon adabiyoti, adabiyotshunoslik va tilshunoslikka kirish, adabiyot nazariyasi, ona tili va adabiyot o‘qitish metodikasi, badiiy matnning lingvistik tahlili, badiiy asarni tahlil qilishning zamonaviy metodlari, ona tili va adabiyot o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari yo bevosita, yo bilvosita badiiy matn tahliliga aloqador bo‘lsa-da, haligacha ularning eng samarador va amaliyot uchun eng qulay turlari ustidagi bahslar davom etmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son qarori 2017 yil 20 aprel
2. Asadov Y.M. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv //Maktab va hayot. – Toshkent, 2014. №1. –8-b.
3. Kadirova M. Bo‘lajak o‘qituvchilarning fol'klor janrlari bo‘yicha kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. ped. fan. dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2022. – 132 b.

Published Date:- 17-10-2023

4. Muslimov N.A. va boshq. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, 2013. – 88 b.